TA’LIM VA TARBIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA BOLALARNING SOG‘LIG‘IGA ZARAR YETKAZUVCHI AXBOROTLARDAN HIMOYA QILISH

Xamrayev Abubakir Faxriddinovich
GulDPI “Ijtimoiy fanlar va san’atshunoslik” kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Bugungi kunda bola huquqlarini ta’minlash global muammolardan biri bo‘lib, uni hal etish bilan bog‘liq masalalar jahon hamjamiyatining doimiy diqqat-e’tiborida.

Kalit so‘zlar: bola huquqlari, jahon, sog‘lom, jismoniy, g‘ayriqonuniy.

Abstract: today, the provision of Child Rights is one of the global problems, the issues related to its solution are under the constant attention of the world community.

Keywords: Child Rights, World, healthy, physical, illegal.

Hozirgi kunda bola huquqlarini ta’minlash global muammolardan biri bo‘lib, uni hal etish bilan bog‘liq masalalar jahon hamjamiyatining doimiy diqqat-e’tiborida. Bu bejiz emas, chunki yosh avlod jamiyat taraqqiyoti va istiqbolini ta’minlovchi yetakchi kuch hisoblanadi. Har bir millatning ertangi kuni, uning yorug‘ istiqboli o‘zining har tomonlama barkamol, iste’dodli yoshlariga bog‘liq. Qaysi yurt taraqqiyotga erishmoqchi bo‘lsa, shubhasiz bolalar tarbiyasiga, ularning sog‘lom va barkamol bo‘lib voyaga yetishiga asosiy e’tiborni karatadi. Shuning uchun ham mustaqilligimizning ilk kunlaridanoq, bolalar va yoshlarning ma’naviy, jismoniy kamolotiga katta e’tibor qaratildi. Agar e’tibor qilsak, mustaqil O‘zbekistonimiz tomonidan qabul qilingan birinchi qonunlardan biri ham “O‘zbekiston Respublikasida Yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari” bo‘lib, u 1991 yilning 20 noyabrida qilingan edi. Ushbu qonunning yangi taxriri ”Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi qonun 2016 yil 14 sentabrida qabul qilindi. Yoki O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov tomonidan 1993-yil 4-martda qabul qilgan farmoniga muvofiq ta’sis etilgan mustaqil O‘zbekistonning ilk ordeni «Sog‘lom avlod uchun» deb nomlandi. Bu yuksak nishon mamlakat oldidagi ulug‘ maqsadlarni ko‘zlab ta’sis etilgan edi. Sog‘lom avlodgina, barkamol millatgina buyuk davlatni bunyod etish mumkinligiga timsol bo‘ldi. Hozir dunyo buyicha 110 mln. bola maktabga jalb etilmagan. Har yili 100 minglab bolalar qarovsizlikdan nobud bo‘lmoqda. Bu raqamlar har birimizni mushohadaga undaydi. Shuning uchun ham bola huquqlarini ta’minlash global muammolardan biri bo‘lib, uni hal etish dunyo hamjamiyatining doimiy diqqat-e’tiborida.

Bugungi kunda yosh avlodni tarbiyalashdagi bosh va asosiy muammolardan biri ularni hayotiga va sog‘lig‘iga xavf soladigan xatti-harakatlarni sodir etishga, shu jumladan o‘z

sog‘lig‘iga zarar yetkazishga, o‘z joniga qasd qilishga va shunday harakatlarni targ‘ib qilishga undaydigan axborotlardan ximoya qilish masalasidir. Shu maqsadda 2017 yil 8 sentabr № O‘RQ–444 – raqam bilan “Bolalarni ularning sog‘lig‘iga zarar yetkazuvchi axborotdan ximoya qilish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining qonuni qabul qilindi. Qonunning maqsadi bolalarni ularning sog‘lig‘iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iboratdir.

Bolalarni ularning sog‘lig‘igazarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari deganda quydagilarni tushinish mumkin:

- bolalarni ularning sog‘lig‘iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilishni ta’minlovchi huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy va texnikaviy shart-sharoitlar yaratish, shuningdek ushbu sohadagi ilmiy va amaliy tadqiqotlarni rivojlantirish;

- bolalar ongiga g‘ayriqonuniy axborot-ruhiy ta’sir ko‘rsatilishining, ularga hiyla ishlatilishining, bolalarni g‘ayriijtimoiy harakatlarga undovchi axborot mahsuloti tarqatilishining oldini olish, shuningdek ushbu sohadagi huquqbuzarliklarni profilaktika qilish;

- fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlarining, nodavlat notijorat tashkilotlarining, fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining, jismoniy va yuridik shaxslarning bolalarni ularning sog‘lig‘iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish sohasidagi faoliyatini qo‘llabquvvatlash;

- bolalarning sog‘lig‘iga zarar yetkazuvchi axborotni tasniflash mezonlari, mexanizmlari va uslublarini ishlab chiqish hamda takomillashtirish, bolalarning axborot xavfsizligini ta’minlashning dasturiy-apparat va texnika vositalarini joriy etish shular jumlasidandir. Bugungi kunda ta’limni davlat tomonidan boshqarish organlarining va ta’lim muassasalarining bolalarni ularning sog‘lig‘iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish sohasida quydagi ishlarni amalga oshirishi lozimdir:

- bolalarni ularning sog‘lig‘iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish sohasidagi davlat dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirishda ishtirok etadi;

- bolalarni ularning sog‘lig‘iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilishga qaratilgan dasturlar va uslublarni ishlab chiqadi hamda ta’lim muassasalarining faoliyatiga joriy etadi;

-ta’lim, o‘quv-tarbiya muassasalarida bolalarni ularning sog‘lig‘iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilishga doir chora-tadbirlarni amalga oshiradi; -bolalarni ularning sog‘lig‘iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish maqsadida ularning ta’lim olish, bilim orttirish va muloqot faoliyati jarayonida bolalarga psixologik yordam ko‘rsatadi;

-bolalarni ularning sog‘lig‘iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish sohasida yakka tartibdagi profilaktika tadbirlarini o‘tkazishda ishtirok etadi; -bolalarning axborotga oid va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga, shuningdek ma’naviyaxloqiy tarbiyasiga doir faoliyatda ishtirok etadi;

- ta’lim muassasalarida bolalar sog‘lig‘iga zarar yetkazuvchi axborotni o‘z ichiga olmagan axborot resurslaridan foydalanishni ta’minlash uchun zarur shart-sharoitlar yaratadi.Bolalarning sog‘lig‘iga zarar yetkazuvchi axborot jumlasiga bolalar o‘rtasida tarqatilishi taqiqlangan axborot mahsuloti, ya’ni muayyan yosh toifalaridagi bolalar o‘rtasida tarqatilishi cheklangan axborot mahsulotlarini aytish mumkin.Bolalarni ularning hayotiga va sog‘lig‘iga xavf soladigan xattiharakatlarni sodir etishga, shu jumladan o‘z sog‘lig‘iga zarar yetkazishga, o‘z joniga qasd qilishga va shunday harakatlarni targ‘ib qilishga undaydigan, shuningdek bolalarda alkogolli va tamaki mahsulotlarini, giyohvandlik vositalarini, psixotrop moddalarni yoki aql-iroda faoliyatiga ta’sir etuvchi boshqa moddalarni iste’mol qilish, qimor o‘yinlarida, ommaviy tartibsizliklarda ishtirok etish, fohishalik, darbadarlik, tilanchilik yoki g‘ayri-ijtimoiy xatti-harakatning boshqa shakllari bilan shug‘ullanish istagini paydo qiladigan axborotlarni tushunish mumkin. Shu bilan birga odamlarga yoki hayvonlarga nisbatan zo‘ravonlik va shafqatsizlik qilish mumkinligini asoslaydigan yoki oqlaydigan yoxud zo‘ravonlik xatti-harakatlarini amalga oshirishga undaydigan hamda oilaviy qadriyatlarni inkor etadigan, axloqsizlikni targ‘ib qiladigan, shuningdek ota-onasiga va oilaning boshqa a’zolariga nisbatan hurmatsiz munosabatni shakllantiradigan shuningdek g‘ayriqonuniy xulq-atvorni oqlaydigan va huquqbuzarlik sodir etishga olib keladigan ma’lumotlar ham bolaning qalbini jarohatlaydi.

Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlarda bolalar o‘rtasida buzg‘unchilik g‘oyalarini targ‘ib etishga chaqiradigan, uyatli so‘zlarni o‘z ichiga olgan, pornografiya xususiyatiga ega bo‘lgan axborotni o‘z ichiga olgan, shafqatsizlik, jismoniy va ruhiy zo‘ravonlik, jinoyat yoki jamiyatga qarshi boshqa xatti-harakatlar tasvirlangan, bolalarda qo‘rquv, vahima yoki sarosima uyg‘otadigan, shu jumladan kuch ishlatilmagan o‘limni, kasallikni, o‘z joniga qasd qilishni, baxtsiz hodisani, avariyani yoki falokatni va ularning oqibatlarini inson qadr-qimmatini kamsitadigan shaklda tasvirlash yoki bayon etish tarzida taqdim etiladigan, erkak va ayol o‘rtasidagi jinsiy munosabatlarni tasvirlash yoki bayon etish tarzida taqdim etiladigan axborot mahsulotlari to‘lib yotibdi. Afsuski bunday ma’lumotlarni zararsizlantirish mexanizimi yoki unga to‘siq qo‘yish imkoniyati bugungi kunda mavjud emas.Darhaqiqat, bugun dunyo taraqqiyoti shu darajaga yetdiki, endi mafkuraviy kurash, ma’naviy salohiyat yetakchi o‘ringa chiqdi. Endi qurol-yaroqlar emas, balki “fikrga qarshi faqat fikr, g‘oyaga qarshi faqat g‘oya” bilan kurashib olg‘a borish mumkin. Kimning mafkurasi, milliy g‘oyasi kuchli bo‘lsa, o‘sha yengib chiqadi. Mamlakatimiz kelajagini ta’minlaydigan, ma’naviy dunyosi butun, axloqan pok, O‘zbekistonning yangi rivojlanish bosqichida samarali mehnati, dunyoviy fanlarni chuqur o‘zlashtirgan yoshlarni tarbiyalash ta’lim tizimidagi asosiy vazifa hisoblanadi.

2017-2021 yillarda O‘zbekistonni rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirishning beshta ustuvor yo‘nalishidan biri “Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta’minlash hamda chuqur o‘ylangan, o‘zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat” qilib belgilanganligi voyaga yetmaganlar orasida ma’naviy tahdidlar mazmunini fosh qilish va vatanparvarlikni chinakam e’tiqodga aylantirish bilan bog‘liq ilmiy muammolarni tadqiq etish zaruratini keltirib chiqaradi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2019 yil 19 martda videoselektor yig‘ilishi o‘tkazilib, bu yig‘ilishda yoshlarimizga bo‘lgan e’tiborni yanada kuchaytirish, ularni madaniyat, san’at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, yoshlarda axborot texnologiyalaridan foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish, yurtimiz yoshlari o‘rtasida kitobxonlikni targ‘ib qilish, xotin-qizlar bandligini oshirish masalalariga urg‘u berildi. Aytish kerakki, turli ziddiyatlar kuchayib borayotgan bugungi dunyo manzaralarida yoshlarimizning ma’naviy immunitetini kuchaytirish, ularning bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazish har qachongidan ham dolzarbroq ekanini anglangan xolda, davlatimiz rahbari tomonidan ijtimoiy, ma’naviy-ma’rifiy sohalardagi ishlarni yangi tizim asosida yo‘lga qo‘yish maqsadida 5 ta muhim tashabbus ilgari surildi. Bugungi kunda har-bir tashabbus bo‘yicha mamlakatimizda chora-tadbirlar dasturlari ishlab chiqilib yurtimiz yoshlari ijtimoiy-iqtisodiy xayotiga tadbiq etilmoqda. Amalga oshirilayotgan ishlarning pirovard maqsadi yoshlar bilan olib boriladigan ma’naviy-ma’rifiy ishlarni yangi bosqichga ko‘tarish, ularda buzg‘inchi g‘oyaviy tahdidlarga qarshi kurashish immunitetini mustaxkam shakllantirishdan iboratdir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev yoshlar bilan olib boriladigan ma’naviy-ma’rifiy ishlarni yangi bosqichga ko‘tarish zarurligi haqida shunday yozadi: “Albatta, biz mustaqil fikrlaydigan, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni egallagan, mustaqil hayotiy pozitsiyaga ega bo‘lgan yoshlarni tarbiyalash bo‘yicha katta ishlarni amalga oshirmoqdamiz. Ammo xolisona tan olib aytadigan bo‘lsak, bugungi kunda butun dunyoda aholining, birinchi navbatda, yoshlarning ongi va qalbini egallash uchun qanday keskin kurash borayotganini, diniy ekstremizm, terrorizm, giyohvandlik, “ommaviy madaniyat” kabi tahdidlar kuchayayotganini hisobga oladigan bo‘lsak, farzandlarimiz tarbiyasi, ma’naviy-ma’rifiy sohadagi ishlarimizni bir zum susaytirmasdan, aksincha, ularni yangi bosqichga ko‘tarishimiz zarur”. Darhaqiqat, bugun dunyo taraqqiyoti shu darajaga yetdiki, endi mafkuraviy kurash, ma’naviy salohiyat yetakchi o‘ringa chiqdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent. “O‘zbekiston” 2018 y.

2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - Toshkent: O‘zbekiston, 2017. 132 RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING YANGI O‘ZBEKISTON RIVOJIGA TA’SIRI Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi.

3. Mirziyoyev Sh.M. Mamlakatimizda huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish borasida belgilangan vazifalar ijrosi, bu boradagi muammolar va ularni hal qilish masalalariga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishidagi ma’ruza “Xalq so‘zi”, 2017 yil 16 noyabr

4. O‘zbekiston Republikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan millatlar tashkiloti bosh assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqini umumta’lim maktablarining 7-10 sinflarida o‘rganish bo‘yicha o‘quv qo‘llanma. –Toshkent:O‘zbekiston, 2017.